

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA FONETIK MASHQLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Ergasheva Farangiz Abdulxamid qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti “Pedagogika”

Fakulteti “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida fonetik mashqlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati yoritilgan. Unda o‘quvchilarda to‘g‘ri talaffuz, eshitish va nutq madaniyatini shakllantirishda audio, video va interfaol dasturlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish usullari ko‘rsatib o‘tilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается значение применения инновационных технологий при обучении фонетическим упражнениям на уроках родного языка в начальных классах. Анализируются возможности использования аудио-, видео- и интерактивных программ для формирования правильного произношения, слухового восприятия и культуры речи у учащихся. Также освещены методы повышения интереса учеников к предмету и развития их творческого мышления.

Annotation

This article explores the importance of using innovative technologies in teaching phonetic exercises during native language lessons in primary school. It analyzes the use of audio, video, and interactive programs to develop correct pronunciation, listening skills, and speech culture among students. The article also discusses methods for increasing students' interest in lessons and fostering creative and independent thinking.

Kalit so‘zlar: fonetik mashqlar, innovatsion texnologiyalar, ona tili, interfaol metod, talaffuz, boshlang‘ich sinf.

Metodologiya

Ushbu maqola yozilish jarayonida kuzatish, tahlil va solishtirish metodlaridan foydalanildi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida fonetik mashqlarni o‘qitish jarayoni o‘rganilib, unda innovatsion texnologiyalarning o‘rni amaliy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, o‘qituvchilarning tajribasi, o‘quvchilarning faol ishtiroki hamda dars samaradorligi kuzatildi. Innovatsion texnologiyalar yordamida fonetik mashqlarni o‘qitish natijalari an‘anaviy usullar bilan taqqoslanib, ularning afzalliklari aniqlab berildi.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish har bir fan o'qituvchisining asosiy vazifasiga aylanmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda dars jarayonini qiziqarli, tushunarli va samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ona tili darslarida fonetik mashqlarni o'qitish orqali o'quvchilarda to'g'ri talaffuz, eshitish va so'z boyligini shakllantirish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, audio, video, interfaol dasturlar va multimedia vositalari yordamida o'quvchilar tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni tezroq o'zlashtiradilar. Bu esa nafaqat fonetik ko'nikmalarni, balki ularning nutq madaniyati va o'qish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Shu sababli, fonetik mashqlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash masalasi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Ma'lumki, ona tili ta'limi o'quvchilarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik – semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi

Maktablarda boshlang'ich sinf ona tili fonetikaga o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'p yondashuvli bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy, axloqiy, estetik, mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ta'lim maskanlarida ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi

.Hozirgi davrga kelib, umumta'lim maktablarda darslarni tashkil qilishning Noan'anaviy usullaridan foydalanishning afzalliklari har bir zamonaviy pedagog o'qituvchi tomonidan e'tirof etilmoqda. 1950-yillarga kelib, AQSHning Garvard universitetida ilk pedagogik texnologiyalardan foydalanib, dars o'tish sinab ko'rildi. Ayni paytda O'zbekistonning ta'lim maskanlarida ham turli interfaol metodlardan qo'llash o'qituvchilarning kundalik ish rejimiga aylanib ulgurgan. Boshlang'ich sinf

ona tili darslarida quyidagi interfaol usullarni qo‘shimcha mashqlar bajarishda samarasi kattadir:

Aqliy hujum metodi;

Muammoli ta’lim metodi;

Kichik guruhlarda ishlash metodi

Ushbu noan’anaviy interfaol usullar yordamida o‘quvchilarga qo‘shimcha mashqlar bajartirganaimizda o‘qish-o‘rgatish jarayonini yaxshi o‘zlashtirishga olib keldi. O‘z vaqtida aloqani tikladi. Motivatsiya yuqori darajada bo‘lishini taminladi, o‘tilgan materialni puxta xotirada saqlab qolishga imkon berdi. Mustaqil fikrlay oladigan o‘quvchining shakllanishiga yordam berdi. Aqliy hujum interfaol metodidan foydalanganimizda o‘quvchilarga mashq shartidan kelib-chiqib o‘quvchilar aqliga hujum qilinadi, o‘quvchilarda fikr va g‘oyalar tug‘iladi. Bu fikr va g‘oyalarni umumlashtirib, yagona, to‘g‘ri xulosa chiqariladi.

Fonetik mashqlar o‘quvchilarning tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, eshitish orqali farqlash va nutqni aniq ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Misol uchun, dars jarayonida o‘qituvchi “q” va “k” tovushlarini farqlash uchun o‘quvchilarga “qalam – kalam”, “qovun – kovun” so‘zlarini talaffuz ettirib, farqni tinglash orqali tushuntiradi. Bunday mashqlar o‘quvchilarning eshitish sezgirligini oshiradi va talaffuzdagi aniqlikka e’tiborli bo‘lishga o‘rgatadi.

Shuningdek, innovatsion texnologiyalar yordamida darsni yanada jonli tashkil etish mumkin. Masalan, audio yozuvlar orqali to‘g‘ri talaffuz namunalarini tinglatish, interfaol doskada tovushlar bilan bog‘liq o‘yinlar o‘tkazish yoki “Wordwall” platformasida “To‘g‘ri talaffuzni tanla” kabi o‘yin topshiriqlarini bajarish o‘quvchilarda fonetik mashqlarga nisbatan qiziqishni oshiradi. Innovatsion yondashuv orqali o‘qituvchi har bir o‘quvchini faollikka undaydi, ularda mustaqil fikrlash, tinglab tushunish va to‘g‘ri talaffuz qilish malakasini shakllantiradi. Natijada, dars nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Shu sababli, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida fonetik mashqlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Xulosa:

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida fonetik mashqlarni o‘qitish o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishda, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va farqlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bugungi tez sur’atlarda rivojlanayotgan raqamli davrda bu jarayonni samarali tashkil etish uchun innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zaruriy holga aylangan.

Audio va video vositalar, interfaol o‘yinlar, multimedialli topshiriqlar, elektron platformalar (masalan, Wordwall, Kahoot, Quizizz) orqali fonetik mashqlarni

o‘tkazish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Bu usullar orqali o‘quvchi tovushlarni eshitish, takrorlash va farqlash jarayonida faol ishtirok etadi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarni nafaqat o‘rganishga, balki mustaqil fikrlashga, izlanishga va o‘z ustida ishlashga ham undaydi. Shuningdek, o‘qituvchining texnologiyadan oqilona foydalanishi dars jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interfaol shaklga keltiradi. Masalan, o‘quvchilar uchun tovushlar asosida o‘yinli mashqlar tuzish, to‘g‘ri talaffuzni tekshiruvchi dasturlarni qo‘llash, tinglab tushunish mashg‘ulotlarini tashkil etish orqali ularning eshitish sezgirligi hamda nutq aniqligi rivojlanadi.

Innovatsion texnologiyalar asosida o‘tkazilgan fonetik mashqlar o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini ochish, ularni erkin fikrlash va ifodali so‘zlashga o‘rgatishda katta yordam beradi. Shu bilan birga, bu yondashuv o‘qituvchi faoliyatini ham yengillashtiradi, darslarni zamonaviy, samarali va bolalar uchun qiziqarli shaklga keltiradi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini raqamlashtirish to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2020.
2. Abduraimov, B. Boshlang‘ich sinf pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2019.
3. Karimova, N. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va ta’lim, 2021.
4. Xolmatova, G. Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlar. – Toshkent: Ilm ziyo, 2022.
5. Yo‘ldosheva, M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2020.
6. G‘ulomova, D. Zamonaviy dars va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Sharq, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim davlat standarti. – Toshkent, 2021.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini raqamlashtirish to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/4844985>